


## NAVOIY VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2025-yil 1- may holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

### I. Korxona va tashkilotlarning soni

2025- yil 1- may holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 19 596 tani tashkil etadi, shundan 17 071 tasi yoki 87,1 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2024- yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 93,1 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 91,3 foizni tashkil etdi.





**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda)**

Yil	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	Kichik biznes subyektlari
2025	19596	17173	17071
2024	21059	18794	18692
2023	22839	20636	20530
2022	23533	21344	21228
2021	21067	18937	18852

Hududlar bo'yicha eng ko'p faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar Navoiy shahrida – 24,7 foiz, Zarafshon shahrida 6,7 foiz, Karmana – 16,1 foiz, Qiziltepa – 13,2 foiz, Xatirchi – 10,1 foiz va Navbahor 9,9 foiz tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi G'ozg'on shahrida – 92,0 foiz va 91,8 foiz, Karmana – 91,3 va 90,7 foiz, Navbahor – 89,7 va 89,5 foiz hamda Qiziltepa – 89,7 foiz va 89,5 foiz tumanlariga to'g'ri keldi.

Hududlar	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	Kichik biznes subyektlari
Navoiy shahar	4847	4231	4190
Zarafshon shahar	1304	1164	1159
G'ozg'on shahar	426	392	391
Konimex tumani	889	744	732
Qiziltepa tumani	2587	2320	2315
Navbahor tumani	1931	1733	1729
Karmana tumani	3151	2876	2859
Nurota tumani	1318	1109	1104
Tomdi tumani	457	365	362
Uchquduq tumani	704	575	570
Xatirchi tumani	1982	1664	1660

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)


[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)



## Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes sub'yektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2025- yil 1- may holatiga 37,5 foizni (42,8 foiz va 42,9 foiz) tashkil etdi.



## Korxona va tashkilotlar


Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 12,6% (14,3% va 14,3%), uchinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi" 10,4% (11,8% va 11,8%).

Birgalikda ushbu uch turdag'i faoliyat ularning umumiyligi sonining 60% dan ortig'ini tashkil qiladi.

Korxona va tashkilotlar	Tadbirkorlik subyektlari	shundan:	
		shundan:	Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2044	2020	2012
Sanoat	2471	2464	2434
Qurilish	1134	1121	1113
Savdo	7343	7343	7330
Tashish va saqlash	699	698	694
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1217	1213	1210
Axborot va aloqa	264	255	255
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	488	281	278
Boshqa turlar	3936	1778	1745

## II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2025-yil 1-may holatiga ko'ra, 17 173 ta faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalaridan 11 004 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



### Tadbirkorlik subyektlari


Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	11004	64,1
Xususiy korxonalar	3288	19,1
Oilaviy korxonalar	2769	16,1
Aksiyadorlik jamiyat	15	0,1
Boshqalar	97	0,6

### III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalarini ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 278 ta korxonalardan 111 tasi qo'shma korxonalar va 167 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



#### Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2025-yilning 1-may holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, 2024-yilning mos davriga nisbatan 49 taga oshgan. Bu asosan, sanoat sohasidagi korxonalar sonining 114 tadan 159 taga, (o'sish 45 taga), axborot va aloqa sohasida 7 tadan 13 taga (o'sish 6 taga) va qurilish sohasida 15 tadan 20 taga (o'sish 5 taga) ko'payishi hisobiga yetdi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
<b>Jami:</b>	<b>278</b>	<b>111</b>	<b>167</b>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	17	7	10
Sanoat	159	76	83
Qurilish	20	3	17
Savdo	38	11	27
Tashish va saqlash	6	2	4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4	1	3
Axborot va aloqa	13	2	11
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3	1	2
Boshqa turlar	18	8	10



## Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 96 ta korxona bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiyligi sonining 34,5 foizini tashkil etdi. Viloyat iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (15,5%), Turkiya (9,0%), Janubiy Koreya (5,4%) va Qozog'iston (4,3%) ham alohida o'rinni egallaydi.

Davlatlar	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	278	111	167
Xitoy	96	29	67
Rossiya	43	14	29
Turkiya	25	8	17
Janubiy Koreya	15	7	8
Qozog'iston	12	9	3
Tojikiston	9	3	6
Hindiston	8	6	2
AQSH	7	5	2
BAA	4	3	1
Belorusiya	4	2	2
Turkmaniston	3	1	2
Buyuk Britaniya	1	-	1



#### IV. Korxonalar va tashkilotlarning demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-soni qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi..

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnomasi tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025- yil 1- may holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi..

##### Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

##### Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatni soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'llanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Soq'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

---

**Tayyorlash uchun mas'ul:**

Raqamlashtirish va statistik  
registrlarni yuritish bo'limi

**Ijrochi:**

N. Xatamova  
79 223-62-47

**Maznil:**

210100, Navoiy sh.,  
Amir Temur ko'chasi, 4